



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

IQTISOD TERMINLARINING PEDAGOGIK POTENSIALI: TERMIN– TUSHUNCHA–NUTQ BIRLIGI

Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada iqtisod terminlarining ta'lim jarayonidagi pedagogik potentsiali termin–tushuncha–nutq birligi konsepsiyasi asosida yoritiladi. Iqtisod terminlari talabaning kasbiy tafakkurini shakllantiruvchi kognitiv tayanch, iqtisodiy kategoriyalarni aniq anglashni ta'minlovchi semantik vosita hamda kasbiy muloqotni rivojlantiruvchi nutqiy resurs sifatida tahlil qilinadi. Maqolada terminning didaktik funksiyalari — tushunchani strukturaviy modellash, argumentatsiyani kuchaytirish, iqtisodiy matnlarni (hisobot, tahlil, shartnoma, taqdimot) to'g'ri talqin qilish va kommunikativ vaziyatlarda (muzokara, debat, pitch) mazmunni aniq ifodalash — asoslab beriladi. Shuningdek, terminlarni o'qitishda definitsiya, kontekst, kollokatsiya, pragmatik moslik va refleksiya birliklaridan iborat metodik algoritmi taklif etilib, u talabalar muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish bilan uyg'un holda ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: iqtisod terminlari, pedagogik potentsial, termin–tushuncha–nutq, kasbiy muloqot, definitsiya, kontekst, kollokatsiya, kommunikativ kompetensiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ: ЕДИНСТВО «ТЕРМИН – ПОНЯТИЕ – РЕЧЬ»

Нарбаева Малохат Худойбердиевна
Ташкентский государственный экономический университет, доцент, PhD

Аннотация

В статье раскрывается педагогический потенциал экономических терминов на основе концепции единства «термин – понятие – речь». Экономические термины рассматриваются как когнитивная опора профессионального мышления, семантический инструмент точного усвоения экономических категорий и речевой ресурс развития профессиональной коммуникации студентов. Обосновываются дидактические функции термина: структурирование понятия, усиление аргументации, корректная интерпретация экономических текстов (отчет, аналитическая записка, договор, презентация) и точное выражение содержания в коммуникативных ситуациях (переговоры, дебаты, pitch). Предлагается методический алгоритм обучения терминам, включающий работу с дефиницией, контекстом, коллокациями, прагматической уместностью и рефлексией, что обеспечивает целенаправленное развитие коммуникативной компетентности.

Ключевые слова: экономические термины, педагогический потенциал, термин–понятие–речь, профессиональная коммуникация, дефиниция, контекст, коллокации, коммуникативная компетентность.

THE PEDAGOGICAL POTENTIAL OF ECONOMIC TERMS: THE “TERM– CONCEPT–SPEECH” UNITY

Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna
Tashkent State University of Economics, Associate Professor, PhD

Abstract

This article explores the pedagogical potential of economic terms through the concept of the “term–concept–speech” unity. Economic terms are analyzed as cognitive anchors for professional thinking, semantic tools for precise acquisition of economic categories, and discourse resources for developing students’ professional communication. The study highlights key didactic functions of terminology, including concept structuring, strengthening argumentation, accurate interpretation of economic texts (reports, analytical briefs, contracts, presentations), and precise meaning-making in communicative settings (negotiations, debates, pitching). The paper proposes a practical teaching algorithm that combines definitional work, contextualization, collocation training, pragmatic appropriateness, and reflection, thereby supporting systematic development of communicative competence.

Keywords: economic terminology, pedagogical potential, term–concept–speech, professional communication, definition, context, collocations, communicative competence.

Zamonaviy oliy ta’limda iqtisod yo’nalishi talabalari uchun kasbiy tayyorgarlikning markaziy mezonlaridan biri — iqtisodiy tafakkur va kasbiy muloqot madaniyatini shakllantirishdir. Bu jarayonda terminlar oddiy “so’zlar ro’yxati” emas, balki ilmiy bilimni tashkil etuvchi, tushunchalarni aniqlashtiruvchi va kasbiy nutqni me’yorlashtiruvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo’ladi. Iqtisod fanlari esa ko’plab abstrakt kategoriyalar (bozor mexanizmi, talab–taklif muvozanati, inflyatsiya, monetar siyosat, investitsion risk, rentabellik va boshqalar)ga tayanganligi sababli, bu kategoriyalarni o’zlashtirish ko’p jihatdan terminlarni to’g’ri anglash va nutqda maqsadga muvofiq qo’llay olish bilan belgilanadi. Shuning uchun iqtisod terminlarining pedagogik potensialini termin–tushuncha–nutq birligi sifatida tahlil qilish ta’lim nazariyasi va amaliyoti uchun dolzarb masaladir.

Ta’lim amaliyotida ko’pincha terminlar talabalarga definitsiya yoki tarjima darajasida berilib, ularning kommunikativ vaziyatdagi ishlatilishi, pragmatik mosligi va argumentatsiyani qurishdagi roli yetarlicha ishlab chiqilmaydi. Natijada talaba termin ma’nosini “bilishi” mumkin, biroq u bilan izoh berish, taqqoslash, dalillash, xulosa chiqarish yoki muzokara jarayonida o’z pozitsiyasini aniq ifodalashda qiynaladi. Demak, terminni o’qitish faqat kognitiv komponent (tushunchani bilish) bilan cheklanmasdan, uni nutqiy kompetensiya — ya’ni aniq, mantiqli, ijtimoiy va kasbiy kontekstga mos muloqot qila olish ko’nikmalari bilan integratsiyada olib borilishi zarur.

“Iqtisod terminlarining pedagogik potentsiali” deganda, terminlarning uch yo’nalishdagi didaktik imkoniyatlari nazarda tutiladi: birinchidan, terminlar tushunchani strukturaviy ravishda quradi va bilimni tizimlashtiradi (termin–konsept bog’lanishi); ikkinchidan, terminlar iqtisodiy matnlarni to’g’ri talqin qilish va mazmunni aniqlashtirishga xizmat qiladi (termin–kontekst bog’lanishi); uchinchidan, terminlar kasbiy nutqda argumentatsiya, izoh, bahs, muzokara va taqdimot kabi muloqot shakllarini sifat jihatdan oshiradi (termin–nutq bog’lanishi). Shu bois termin–tushuncha–nutq birligini konseptual asos sifatida qabul qilish, iqtisod terminlarini o’qitishning mazmuni va metodikasini takomillashtirishga, xususan talabalarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — iqtisod terminlarining pedagogik potensialini termin–tushuncha–nutq birligi doirasida ochib berish, terminlarning didaktik funksiyalarini tizimlashtirish hamda terminlarni o’qitishning amaliy-metodik algoritmini asoslashdan iborat. Maqolada terminlarning konseptual aniqlikni ta’minlash, iqtisodiy tafakkurni shakllantirish va kasbiy kommunikatsiyani me’yorlashtirishdagi o’rni nazariy tahlil qilinib, ta’lim jarayonida

terminlar bilan ishlashni samarali tashkil etish uchun metodik yondashuvlar umumlashtiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Iqtisod terminlarining pedagogik potensialini yoritishda adabiyotlar, avvalo, terminni oddiy “so‘z” emas, balki tushuncha va ta’rif bilan bog‘langan maxsus birlik sifatida ko‘rishni talab qiladi. Terminologiya ishlariga doir ISO 704 standarti obyekt → konsept (tushuncha) → ta’rif → belgilanish (designations/terms) o‘rtasidagi bog‘liqlikni asosiy tamoyil sifatida belgilab, terminni o‘qitishda ham konsept-markazli yondashuv (tushunchani aniqlash, chegaralash, ta’riflash) zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtadan, iqtisod terminlari (“inflyatsiya”, “rentabellik”, “likvidlik”, “soliq bazasi” va b.) talaba ongida bilimni tizimlashtiradigan kognitiv tayanch sifatida qoraladi.

Terminlarning kommunikativ tabiati masalasida M. T. Cabré ishlab chiqqan Kommunikativ terminologiya nazariyasi terminlarni bir vaqtning o‘zida til birligi, kognitiv birlik va ijtimoiy (diskursiv) funksiyaga ega birlik sifatida tahlil qiladi. Bu yondashuv “termin–tushuncha–nutq” birligining nazariy asosini kuchaytiradi: iqtisod termini faqat definitsiya bilan emas, balki diskurs hamjamiyatlari (masalan, iqtisodchi, auditor, bank xodimi, tadbirkor) muloqotida qanday vazifani bajarishi (izohlash, dalillash, baholash, qaror taklif qilish) bilan ham o‘zlashtiriladi. Shu yo‘nalishda R. Temmermannning sotsiokognitiv yondashuvi ham terminlar kategoriyalanishi va ma’nosining real ixtisoslashgan diskursda shakllanishini ta’kidlab, terminlarni “qotib qolgan” birlik emas, balki kontekstda yashaydigan birlik sifatida ko‘rishga undaydi.

“Iqtisod termini → kasbiy nutq” bog‘liqligini ochishda ESP/EAP va diskurs tadqiqotlari muhim tayanch beradi. J. Swalesning “diskurs hamjamiyati” haqidagi konsepsiyasi fan va kasb doirasida til birliklari (jumladan, terminlar) kommunikativ maqsad va janrlar (hisobot, tahliliy yozuv, prezentatsiya, muzokara bayonnomasi) orqali me’yorlashishini ko‘rsatadi. K. Hyland esa akademik va kasbiy kommunikatsiyada “fan (discipline) diskursi”ning o‘ziga xos leksik va pragmatik xususiyatlari mavjudligini, ya’ni terminlar muloqotda nafaqat ma’no, balki pozitsiya, ishonchlilik (stance), dalillash uslubini ham belgilashini asoslaydi. Bu xulosalar iqtisod terminlarini o‘qitishda “to‘g‘ri atash”dan tashqari, ularni nutqda argumentatsiya va janrga mos ifoda bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.

Pedagogik adabiyotlarda terminlarni o‘rgatishning samaradorligi ko‘p jihatdan kontekst va kollokatsiyaga (terminning tipik birikmalari) tayanishi bilan izohlanadi. I. S. P. Nation so‘z (va termin)ni bilish tarkibida birikuvchanlik (collocations) muhim komponent ekanini, u o‘qitishda alohida e’tibor talab qilishini ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda korpusga asoslangan yondashuvlar LSP (Language for Specific Purposes) ta’limida termin va kollokatsiyalarni real matnlar orqali o‘rgatish samarali ekanini metodik jihatdan asoslab bermoqda. Bu esa iqtisod terminlarini “ta’rif + tarjima” darajasidan chiqarib, “terminning matndagi ishlashi + tipik birikmalari + pragmatik mosligi”ga olib chiqadigan metodik yechimlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Bevosita iqtisod yo‘nalishida esa ESP doirasidagi korpus tadqiqotlar iqtisod matnlarida ko‘p uchraydigan so‘zlar/terminlar ro‘yxati, akademik leksika va sohaviy “kalit birliklar”ni ajratish orqali termin minimumi va o‘quv glossariylarini tuzishga ilmiy asos beradi. Shunga qaramay, adabiyotlar tahlili ko‘rsatadiki, terminologik (konseptual) aniqlikni ta’minlash bo‘yicha yondashuvlar bilan terminlarning nutqiy (diskursiv) qo‘llanishini birlashtiradigan, ya’ni termin–tushuncha–nutq zanjirini didaktik model sifatida izchil amalga oshiradigan metodik tizimlar ko‘pincha yetarlicha operatsionlashtirilmagan. Shunday ekan, mazkur maqolaning ilmiy vazifasi — terminologiya nazariyasi (konsept–ta’rif), diskurs/ESP (janr va kommunikativ maqsad) hamda leksik-didaktik yondashuvlarni (kontekst–kollokatsiya–pragmatika) yagona pedagogik mantiqqa keltirishdan iborat bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Korpusga asoslangan kontekstual tahlil metodi (corpus-based contextual analysis).

Mazkur maqolada iqtisod terminlarining pedagogik potentsiali “termin–tushuncha–nutq” birligi nuqtayi nazaridan korpusga asoslangan kontekstual tahlil orqali oʻrganildi. Metod doirasida (1) iqtisod faniga oid oʻquv matnlari, maqolalar, hisobotlar va biznes-yozishmalaridan iborat kichik korpus shakllantirildi; (2) terminlar minimumi aniqlanib, ularning definitsiyalari konsept-markazli yondashuv asosida tekshirildi; (3) har bir terminning real matndagi qoʻllanish kontekstlari va tipik kollokatsiyalari ajratildi; (4) terminlarning nutqiy funksiyalari (izohlash, dalillash, baholash, taklif berish, xulosa chiqarish) kodlandi; (5) natijada terminlarni oʻqitish uchun “definitsiya → kontekst → kollokatsiya → kommunikativ vazifa” ketma-ketligiga tayangan metodik algoritm ishlab chiqildi.

Korpusga asoslangan kontekstual tahlil iqtisod terminlarining pedagogik potentsiali “termin–tushuncha–nutq” birligi sifatida izchil namoyon boʻlishini koʻrsatdi: terminlar avvalo talabaning iqtisodiy konseptual maydonini shakllantiradi (tushuncha), soʻng bu maydonni real matn va vaziyatlarda aniq mazmun bilan toʻldiradi (kontekst), nihoyat, kasbiy muloqotda maqsadga xizmat qiluvchi nutqiy funksiyalarni bajaradi (diskurs). Shu tariqa, terminni oʻqitish “maʼnoni yodlash” emas, balki “tushunchani qurish va uni nutqda ishlatish” jarayoniga aylanadi.

Birinchi natija shundan iboratki, iqtisod terminlari kognitiv jihatdan tushunchani strukturaviy modellash vazifasini bajaradi. Masalan, “inflyatsiya”, “foiz stavkasi”, “real daromad”, “likvidlik”, “rentabellik” singari terminlar korpusda koʻpincha sabab–oqibat, taqqoslash, koʻrsatkich–mezon munosabatlarini ifodalovchi konstruktsiyalar bilan birga keladi. Bu holat terminlarning oʻzi talabaning iqtisodiy tafakkurida kategoriyalar oʻrtasidagi bogʻlanishlarni (masalan, inflyatsiya ↔ real daromad; foiz stavkasi ↔ investitsiya; likvidlik ↔ risk) tuzishga xizmat qilishini anglatadi. Demak, terminlarni didaktik jihatdan “kategoriyalar tarmogʻi” sifatida berish, alohida-alohida izoh berishdan koʻra samaraliroq boʻlishi ilmiy asoslandi.

Ikkinchi natija terminning semantik aniqligi koʻpincha kontekst orqali mustahkamlanishini koʻrsatdi. Korpusda koʻplab iqtisod terminlari bir xil definitsiyaga ega boʻlib koʻrinadi, turli janrlarda turlicha pragmatik vazifa bajaradi: masalan, “risk” hisobotda ehtimollik va zarar koʻlami bilan oʻlchanadigan koʻrsatkich sifatida, muzokarada esa qaror qabul qilishga toʻsqinlik qiluvchi omil sifatida, akademik matnda esa nazariy model parametri sifatida keladi. Shu sabab terminning mazmunini faqat lugʻaviy taʼrif bilan emas, balki “qaysi janrda qanday maqsadda ishlaydi?” degan savol bilan oʻrgatish zarurligi aniqlandi.

Uchinchi natija sifatida terminlarning oʻzlashtirilishida kollokatsiya (tipik birikmalar) hal qiluvchi rol oʻynashi koʻrindi. Korpusdagi iqtisod terminlari koʻpincha barqaror birikmalar orqali “oʻz oʻrnini topadi”: masalan, “inflyatsiya darajasi”, “foiz stavkasi oshishi/pasayishi”, “talabning elastikligi”, “bozor segmenti”, “investitsiya portfeli”, “rentabellik koʻrsatkichi” kabi. Kollokatsiyalar terminning maʼnosini aniqlashtiradi va xatolik riskini kamaytiradi: talaba terminni bilsa ham, u bilan tabiiy birikma tuza olmasa, nutq “sunʼiy” va noaniq boʻlib qoladi. Shunday qilib, terminni oʻqitishda kollokatsiyalarni alohida oʻquv birlik sifatida kiritish metodik jihatdan asoslandi.

Toʻrtinchi natija terminlarning nutqiy (diskursiv) funksiyalari barqaror takrorlanishini koʻrsatdi. Tahlilda iqtisod terminlari koʻpincha quyidagi kommunikativ vazifalarni bajarishi aniqlandi: izohlash (definitsiya va sharhlash), dalillash (argument va isbot), baholash (samaradorlik, foyda/zarar, risk), taklif berish (strategiya, choralar, tavsiyalar), xulosa chiqarish (natija, prognoz). Bu funksiyalar terminlarni oʻqitishda “terminni aytish” bilan cheklanmay, talaba termin yordamida gapirish/yozish amalini bajarishi zarurligini koʻrsatadi. Masalan,

“rentabellik” termini o‘rgatilganda talaba uni ta’riflabgina qolmay, rentabellikni oshirish bo‘yicha taklif berishi, ko‘rsatkichni tahlil qilishi va xulosa chiqarishi kerak.

Beshinchi natija sifatida “termin–tushuncha–nutq” birligini ta’limga tatbiq etish uchun samarali didaktik ketma-ketlik ajratildi: definitsiya → konsept xaritasi → kontekst (janr) → kollokatsiya → kommunikativ vazifa → refleksiya. Ushbu zanjir terminning nazariy aniqligini saqlagan holda uni real muloqotga olib chiqadi. Natijada maqola doirasida terminlarni o‘qitishning metodik algoritmi sifatida: (1) terminning minimal, aniq ta’rifi; (2) unga yaqin terminlar bilan farqlash (masalan, “daromad–foyda”, “likvidlik–to‘lovga qobiliyat”); (3) 2–3 ta janrda kontekst berish; (4) 5–7 ta kollokatsiya bilan mustahkamlash; (5) kommunikativ topshiriq (muzokara/pitch/debat/hisobot parchasini yozish); (6) o‘z-o‘zini baholash va peer-feedback taklif qilindi.

Umumlashtirib aytganda, tahlil iqtisod terminlarining pedagogik potentsiali termin–tushuncha–nutq birligi asosida ochilishini tasdiqladi: terminlar konseptual aniqlikni beradi, kontekst uni mazmun bilan boyitadi, kollokatsiya nutqiy tabiiylikni ta’minlaydi, kommunikativ vazifa esa terminni muloqot kompetensiyasiga aylantiradi. Shu xulosa iqtisod terminlari asosida talabalarning kasbiy muloqotini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Maqolada o‘tkazilgan korpusga asoslangan kontekstual tahlil iqtisod terminlarining pedagogik potentsiali “termin–tushuncha–nutq” birligi sifatida namoyon bo‘lishini tasdiqladi. Iqtisod terminlari talabaning kasbiy tafakkurida tushunchalar tizimini quruvchi kognitiv tayanch bo‘lib xizmat qilishi, iqtisodiy kategoriyalar o‘rtasidagi sabab–oqibat, ko‘rsatkich–mezon va taqqoslash munosabatlarini mantiqan shakllantirishga yordam berishi aniqlandi. Shu bilan birga, terminning semantik aniqligi va pragmatik mosligi real matn va janrlarda (hisobot, tahliliy yozuv, shartnoma, taqdimot, muzokara) qo‘llanish kontekstlari orqali mustahkamlanishi ko‘rsatildi.

Tahlil natijalari terminlarni o‘zlashtirishda kollokatsiyalar va tipik birikmalar alohida didaktik ahamiyatga egaligini ko‘rsatdi: terminning “tabiiy” nutqiy ishlatilishi aynan birikuvchanlik orqali ta’minlanadi va bu xatoliklarni kamaytiradi. Shuningdek, iqtisod terminlari kasbiy muloqotda izohlash, dalillash, baholash, taklif berish va xulosa chiqarish kabi barqaror kommunikativ funksiyalarni bajarishi aniqlanib, terminlarni o‘qitish jarayonini aynan shu funksiyalar bilan bog‘lash zarurligi asoslandi.

Umumiy xulosa sifatida, terminlarni “ta’rif + tarjima” darajasida o‘rgatish yetarli emas; ularni konseptual xaritalash, kontekstualizatsiya, kollokatsiya bilan mustahkamlash va kommunikativ vazifalar orqali nutqqa chiqarish ta’lim samaradorligini oshiradi. Taklif etilgan metodik ketma-ketlik — definitsiya → konsept xaritasi → kontekst (janr) → kollokatsiya → kommunikativ topshiriq → refleksiya — iqtisod terminlaridan foydalanish asosida talabalarning kasbiy muloqot kompetensiyalarini tizimli rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. ISO 704:2022. Terminology work — Principles and methods. — Geneva: International Organization for Standardization, 2022.
2. Cabré, M.-T. The Communicative Theory of Terminology: A Linguistic Approach to Terms / M.-T. Cabré // *Revue française de linguistique appliquée*. — 2009. — Vol. XIV, № 2. — P. 9–15. — DOI: 10.3917/rfla.142.0009.
3. Cabré, M. T. Terminology: Theory, Methods and Applications / M. T. Cabré; ed. J. C. Sager; transl. J. A. DeCesaris. — Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing, 1999. — 248 p.

4. Temmerman, R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach / R. Temmerman. — Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2000. — xv, 258 p.
5. Swales, J. M. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings / J. M. Swales. — Cambridge; New York: Cambridge University Press, 1990. — xi, 260 p.
6. Dudley-Evans, T.; St John, M. J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach / T. Dudley-Evans, M. J. St John. — Cambridge: Cambridge University Press, 1998. — 301 p.
7. Hyland, K. Disciplinary Discourses: Social Interactions in Academic Writing / K. Hyland. — Harlow; New York: Longman, 2000. — xxi, 211 p.
8. Bowker, L.; Pearson, J. Working with Specialized Language: A Practical Guide to Using Corpora / L. Bowker, J. Pearson. — London; New York: Routledge, 2002. — 242 p. — DOI: 10.4324/9780203469255.
9. Coxhead, A. A New Academic Word List / A. Coxhead // TESOL Quarterly. — 2000. — Vol. 34, № 2. — P. 213–238.
10. Sun, W.; Park, E. EFL Learners' Collocation Acquisition and Learning in Corpus-Based Instruction: A Systematic Review / W. Sun, E. Park // Sustainability. — 2023. — Vol. 15, № 17. — Art. 13242. — DOI: 10.3390/su151713242.
11. He, M.; Ang, L. H. Profiling a Microeconomics Noun Collocation List: A Corpus-Based Approach / M. He, L. H. Ang // Southern African Linguistics and Applied Language Studies. — 2023. — Vol. 41, № 2. — P. 191–209. — DOI: 10.2989/16073614.2022.2117708.
12. Iqtisodiyotga oid atamalar va tushunchalar izohli lug'ati / tuzuvchi: Z. Zoyirov; mas'ul muharrir: O. Qayumov. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi FA "Fan" nashriyoti, 2004. — 35 b.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati: 5 jildli / A. Madvaliyev tahriri ostida. — Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008. — 5 j.